

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**A. I. GERTSEN NOMIDAGI ROSSIYA DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI**

KIREEVA ELVINA FLARITOVNA

**TALABALARNING POLI-MADANIY O'ZARO HAMKORLIKKA
TAYYORGARLIGINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Kireeva Elvina Flaritovna

Talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini samarali rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish.....

3

Киреева Эльвина Фларитовна

Совершенствование педагогических условий эффективного развития готовности студентов к поликультурному взаимодействию.....

21

Kireeva Elvina Flaritovna

Improvement of the pedagogical conditions for the effective development of students' readiness for polycultural interaction.....

39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

43

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**A. I. GERTSEN NOMIDAGI ROSSIYA DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI**

KIREEVA ELVINA FLARITOVNA

**TALABALARNING POLI-MADANIY O'ZARO HAMKORLIKKA
TAYYORGARLIGINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Dissertatsiya A. I. Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bimm.uz) va axborot-ta'lim portaliga «ZiyoNet» (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Barchenko Sergey Alekseyevich pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Yuzlikayev Farid Rafarlovich pedagogika fanlari doktori, professor
	Shin Agrippina Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "15" 12 soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+998) 71-203-01-28; faks: (+998) 71-202-01-20; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (27 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+998) 71-203-01-28; faks: (+998) 71-202-01-20; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "24" 11 kuni tarqatildi,
(2025 yil "24" noyabr dagi 27-raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh. Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

N.K. Haqnazarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Y.U. Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta'limni internatsionalizatsiyalashtirish tendensiyalari universitetlarda ko'p millatli talabalar kontingentini ortib borishiga olib keldi. Bu sharoitda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va konstruktiv hamkorlikka tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan ta'lim jarayonlarida madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqida: "Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasida muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni ro'yobga chiqarish yo'lida o'z hissamizni qo'shishga doim tayyormiz"¹ degan fikrlari talabalarda madaniyatlararo o'zaro hamkorlikka tayyorlikni shakllantirish, ko'p millatli ta'lim muhitiga moslashish va zamonaviy jamiyatning poli-madaniy makonida faol ishtirok etishga qaratilgan yangi pedagogik vazifalarni belgilab bermoqda.

Dunyoning ilmiy va ta'lim markazlarida ko'p madaniyatli muhitda samarali muloqot va hamkorlikni ta'minlay oladigan, kross-madaniy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash muammosi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda empatiya, muloqotda egiluvchanlik, madaniy farqlarni to'g'ri qabul qilish, etnomadaniy bag'rikenglik va kross-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish, shuningdek, migrantlarni ta'lim muhitiga moslashtirish masalalari ilmiy izlanishlarda muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. YUNESKOning "Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework"² deklaratsiyasida madaniyatlararo muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati ta'kidlanib, etnik, madaniy, diniy va til jihatdan turli shaxslar o'rtasida ochiq, hurmatga asoslangan muloqot hamda o'zaro tushunishni ta'minlash, ta'lim muhitida poli-madaniy hamkorlikni qo'llab-quvvatlovchi amaliy loyihalarni joriy etish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini sifat jihatdan takomillashtirish, xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, xorijiy hamkorlikni kengaytirish va ko'p millatli ta'lim muhitini rivojlantirish sharoitida talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik va metodologik asoslari yaratilmoqda. Bu jarayonda jamiyatda bag'rikenglik, madaniyatlararo hurmat hamda umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan ta'lim muhitini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Natijada talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8525>

² <https://www.unesco.org/interculturaldialogue/en/interculturaldialogue/good-practices/intercultural-competences-conceptual-and-operational-framework>

2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrda PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek, boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va uni amalga oshirish yo‘llari” hamda Rossiya Federatsiyasining “Gumanistik pedagogika: shaxsni har tomonlama rivojlantirish va tolerantlikni shakllantirish uchun sharoitlarni yaratish sohasidagi tadqiqotlar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim sifatini ijtimoiy-madaniy voqelik talablari va kompetensiyaviy yondashuv maqsadlariga muvofiq oshirish bo‘yicha E.F.Zeyer, I.Y.Zimnyaya, Sh.M.Mamadjonova, B.M.Umarova, S.A.Shermuxeamedova, talabalarda axloqiy jihatdan yetuk shaxsni kamol toptirishga xizmat qiluvchi qadriyatlarni shakllantirish bo‘yicha L.K.Andryuxina, S.L.Bratchenko, M.I.Gubanova, S.I.Osipova, N.N.Rahmatov, G.U.Soldatova, A.A.Usmonova, talabalarining kasbiy va ijtimoiy sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bo‘yicha G.M.Andreyeva, M.M.Baxtin, M.A.Galaguzovalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

F.R.Yuzlikayev, M.B.Bekmuradov, D.M.Kadirov, A.A.Ikramov, Sh.SH.Sanaqulova, N.N.Rahmatov, Sh.M.Muxtarov, M.A.Rasulova, K.A.Farfiyeva, M.B.Yuldasheva, G.A.Toxtasunova, N.A.Shermuxeamedova, D.A.Kochkarova, N.SH.Umarovalar tomonidan ta’lim sifatini oshirish, talabalarda axloqiy va milliy qadriyatlarga yo‘naltirilgan shaxsiy fazilatlarini, madaniyatlararo muloqot va ko‘p madaniyatli shaxsni shakllantirish hamda ta’lim muhitida ijtimoiylashuv jarayonlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlaridan G.M.Andreyeva, M.M.Baxtin, M.A.Galaguzova, YE.V.Bondarevskaya, B.S.Gershunskiy, A.N.Djurinskiy, V.V.Zazikin, T.V.Zinovyeva, G.D.Dmitriyev, F.G.Kulayev, S.I.Levikova, V.V.Makayev, V.A.Tishkov, N.B.Krilova, N.G.Markov, A.K.Lukina, T.V.Poshtarev, Y.V.Agrantlar kompetensiyaviy yondashuv, ko‘p madaniyatli ta’lim nazariyasi, tolerantlikni rivojlantirish, madaniyatlararo hamkorlik va pedagogik modellashtirish asosida shaxsning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni tadqiq etganlar.

Xorijiy olimlardan M.J.Banks, M.Xoxmann, U.Shmidt, M.Bayram, V.Rininglar ko‘p madaniyatli ta’lim, madaniyatlararo muloqot,

multimadaniy kompetensiyalar va ko'p tilli muhitda shaxs rivojlanishi hamda global fuqarolik ta'lim konsepsiyalarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi № 073-03-2025-064 "O'zbekiston Respublikasi ta'lim standartlari va O'zbekiston ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim, psixologiya va unga aloqador sohalar bo'yicha pedagog kadrlar va mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali talabalarini poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini samarali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarining poli-madaniy tayyorgarlikni samarali rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarining poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini takomillashtirish;

talabalarining poli-madaniy o'zaro hamkorligini rivojlantirish jarayonining sinergetik samaradorligini aniqlash.

poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirish;

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarining poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini samarali rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat universiteti va Namangan davlat pedagogika institutlarining 445 nafar respondent-talabasi ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarining poli-madaniy hamkorlikka tayyorgarligini samarali rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida anketa so'rovi, intervyu, SWOT-tahlil, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, modellashtirish, ekspert baholash, fokus-guruh tadqiqoti, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining poli-madaniy tayyorgarligini samarali rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari o'quv jarayonidagi interfaol madaniy inklyuziya va krossmadaniy o'zaro hurmatli muloqotda turli madaniy meroslarni milliy sharoitlarda integrativ interpretatsiyasi orqali aniqlangan;

talabalarining poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli turli madaniyat vakillarining o'zaro hamkorlikdagi refleksiv faoliyatidagi voqeylikni milliy sharoitga etnomadaniy

xususiyatlarga ko'ra adaptiv muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish jarayonlari turli madaniyatlarga oid bilim va ko'nikmalarni baholash tizimini ta'lim jarayoniga joriy etish hamda madaniyatlararo mikroguruhlarini tashkil etish asosida takomillashtirilgan;

poli-madaniy o'zaro hamkorlikni rivojlantirish jarayonini sinergetik samaradorligi talabalarning turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi faollik darajasi, hamjihatlik va o'zaro bir-birlarini qo'llab-quvvatlashdagi dinamik o'zgarishlarni monitoringi orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tuzilmaviy-funksional model, diagnostika mezonlari va ko'rsatkichlar majmui ishlab chiqilgan;

poli-madaniy ta'lim muhitini shakllantirishda samarali bo'lgan interfaol madaniy inklyuziya, krossmadaniy muloqot va refleksiv faoliyat usullarini qamrab olgan innovatsion ta'lim texnologiyalari taklif etilgan;

talabalarning poli-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv-amaliy mashg'ulotlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda madaniyatlararo mikroguruhlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim jarayonida, xususan "Pedagogika", "Ta'lim psixologiyasi", "Madaniyatlararo muloqot" fanlarini o'qitishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishga pedagogik va metodik yondashish, ta'lim jarayonida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini shakllantirishda milliy qadriyatlar va an'analarning uyg'unligini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalarga tayangan holda tadqiqot vazifalariga mos metodlar tanlanganligi, tahlil va tavsifning miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati talabalarni poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorlash, talabalarda madaniyatlararo muloqot, bag'rikenglik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, "Pedagogik ta'lim", "Psixologik-pedagogik ta'lim" ta'lim yo'nalishlarining "Maxsus ta'lim", "Madaniyatlararo kommunikatsiya" va "Lingvistika" fanlarini mazmunini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish imkonini yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiya, model va usullarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash, talabalarning poli-madaniy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, madaniyatlararo muloqot va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda treninglar tashkil etishda foydalanish, tillar va madaniyatlar xilma-xilligi sharoitida talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarni poli-madaniy o'zaro

hamkorlik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

talabalarning poli-madaniy tayyorgarligini samarali rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini o'quv jarayonidagi interfaol madaniy inklyuziya va krossmadaniy o'zaro hurmatli muloqotda turli madaniy meroslarni milliy sharoitlarda integrativ interpretatsiyasi orqali aniqlash bo'yicha tavsiyalar A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetini Toshkent shahridagi filialining 2024-yil 25-avgustdagi 571-sonli buyrug'i bilan ro'yxatga olingan OCH-5-11 "Psixologiya va ijtimoiy pedagogika (Bolalar psixologiyasi)" fanining o'quv dasturi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 28-iyuldagi 01/01-300-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning madaniy hissiy va kognitiv salohiyatini oshirish, ularning turli madaniyatlar bilan uyg'unlashgan holda faol ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini turli madaniyat vakillarining o'zaro hamkorlikdagi refleksiv faoliyatidagi voqeylikni milliy sharoitga etnomadaniy xususiyatlarga ko'ra adaptiv muvofiqlashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalardan Rossiya Federatsiyasi Maorif vazirligining 850000F.99.1.BN66AA04000-reyestr raqamli "O'zbekiston Respublikasi hududida 2021-2024 yillarda bajarilgan maktabgacha va maktab ta'limi tizimi pedagog kadrlarining salohiyatini oshirishga qaratilgan "Malish" va "Klass" loyihalari"ni amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 28 iyuldagi 01/01-300-son ma'lumotnomasi). Natijada pedagogik faoliyat yuritayotgan turli madaniyat vakillarining krossmadaniy muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy hamkorlik qobiliyatlari rivojlantirilgan;

talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish jarayonlari turli madaniyatlarga oid bilim va ko'nikmalarni baholash tizimini ta'lim jarayoniga joriy etish hamda madaniyatlararo mikroguruhlarini tashkil etish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetini Toshkent shahridagi filialining 2024-yil 25-avgustdagi 571-sonli buyrug'i bilan ro'yxatga olingan OCH-5-1 «Maxsus (defektologik) ta'lim», B-1-11 «Lingvistika» fanlarining o'quv dasturlari mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 28 iyuldagi 01/01-300-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning krossmadaniy muloqot qobiliyatini oshirish va turli madaniyat vakillari bilan samarali hamkorlik qilish salohiyatini rivojlantirishga erishilgan;

poli-madaniy o'zaro hamkorlikni rivojlantirish jarayonini sinergetik samaradorligi talabalarning turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi faollik darajasi, hamjihatlik va o'zaro bir-birlarini qo'llab-quvvatlashdagi dinamik o'zgarishlarni monitoringi orqali aniqlashga qaratilgan tavsiyalardan Rossiya Federatsiyasi Maorif vazirligining 850000F.99.1.BN66AA04000-reyestr raqamli "O'zbekiston Respublikasi hududida 2021-2024 yillarda bajarilgan maktabgacha va maktab ta'limi tizimi pedagog kadrlarining salohiyatini oshirishga qaratilgan "Malish" va "Klass" loyihalari"ni amalga oshirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 28-iyuldagi 01/01-300-son ma'lumotnomasi).

Natijada talabalarining turli madaniy muhitdagi faollik darajasi, hamjihatligi, jamoadagi o'zaro qo'llab-quvvatlash hamda farqli madaniy nuqtai nazarlarga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, ulardan 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 8 paragraf, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti ochib berilgan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarining poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik va nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy tadqiqotlar, psixologik-pedagogik adabiyotlarning tahlili, shuningdek, talabalarining poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorligi masalalari bo'yicha tarixiy va xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Poli-madaniy o'zaro hamkorlik, bu – fuqarolar totuvligini mustahkamlash, bag'rikenglikni rivojlantirish, millatlararo tinchlikni saqlash va jamiyatda madaniyatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan strategik muhim vazifa hisoblanadi. Ko'pmillatli O'zbekistonda ushbu yo'nalish barqaror rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu vazifani amalga oshirishga o'quv-tarbiya jarayonida madaniy xilma-xillikka hurmat, empatiya va konstruktiv madaniyatlararo muloqotga tayyorgarlikni rivojlantiradigan poli-madaniy ta'lim elementlaridan maqsadli foydalanish yordam beradi.

Pedagogik jihatlar, o'zaro hamkorlik jarayonini ta'minlash, poli-madaniy o'zaro hamkorlikga tayyorgarlikni shakllantirish, shaxslararo va ijtimoiy o'zaro hamkorlik bo'yicha tadqiqotlar O'zbekistonda ham, yaqin va uzoq xorijda ham bir qator olimlar tomonidan amalga oshirilgan. O'zaro hamkorlik kategoriyasiga yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramasdan, deyarli barcha nazariy yondashuvlar va tushunchalarda ifodalangan umumiy g'oyalar o'zaro hamkorlikning muloqot va

kommunikatsiya bilan o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Bir qator olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilayotgan muammoning ayrim jihatlarini ko‘rib chiqilgan: ijtimoiy o‘zaro hamkorlik (L.V.Bayborodov, A.V.Mudrik, Sh.M.Shamuxamedov); madaniyatlararo kommunikatsiya (A.I.Golishev, L.A.Islamov, A.P.Sadoxin); madaniyatlararo kompetentlik (L.A.Plujnik, I.Raxmidullayev, N.A.SHermuxamedova); millatlararo muloqot madaniyati (M.A.Berdiyev, G.V.Dmitriyev, V.I.Matis, M.M.Mirzaliyev, K.V.Nishonboyev, I.A.Novikov, S.SHermuxamedov); shaxslararo muloqot kontekstida o‘zaro hamkorlik (G.G.Banner, N.V.Sokovnina, G.A.Farnxem, Sh.M.Shamuxamedov); o‘zaro hamkorlik jarayonida manfaatlar transformatsiyasi (B.G.Ananyev, L.P.Buyeva, M.S.Kagan); ta‘lim muhiti umumiy ta‘lim makonining elementi sifatida (S.V.Tarasov); ta‘limga madaniyatshunoslik nuqtai nazardan yondashish (N.B.Krilova, T.V.Meng, Z.S.Muxtorova, R.G.Safarova, A.N.Tubelskiy); madaniyatlararo o‘zaro hamkorlik sohasidagi madaniyatlar dialogi (M.M.Baxtin, B.A.Nazarov); pedagogik shart-sharoitlar ta‘lim jarayonini tashkil etish natijasi sifatida (V.I.Andreyev, G.Y.Belyayev, G.YE.Zohidov, A.S.Kondina); shaxslararo muloqot kontekstida samarali o‘zaro hamkorlik (N.M.Boritko, Y.S.Manuylov, I.Y.Shustov); ijtimoiy-madaniy kontekstda shaxsni shakllantirish (G.M.Andreyev, N.B.Krilova, V.I.Slobodchikova, N.A.SHermuxamedova, G.A.Yunusov, V.A.Yasvin).

Ijtimoiy, madaniy va shaxsiy o‘zaro hamkorlik elementlarini o‘z ichiga olgan ko‘p darajali poli-madaniy o‘zaro hamkorlik jarayoni etnomadaniy to‘siqlarni bartaraf etishni talab qiladi. U ham tizimlashtirilgan kommunikatsiya, ham umuminsoniy qadriyatlar va jamoaviy shakllantirilgan meyorlarga asoslangan harakatlarni maqsadli tashkil etish mavjudligi bilan tavsiflanadi. Poli-madaniy o‘zaro hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish faqat madaniyatlararo muloqotni shakllantirishga va ijobiy ijtimoiy tajribani orttirishga yordam beradigan maxsus tashkil etilgan ta‘lim muhiti sharoitida mumkin. Bunday muhit ochiq, inklyuziv, madaniy mazmunga to‘yingan bo‘lishi va ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining poli-madaniy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Poli-madaniy o‘zaro hamkorlikni shakllantirish strategiyasini tahlil qilish va qurishning metodologik asosini madaniyatshunoslikka oid va poliparadigmatik yondashuvlar tashkil qiladi, ular bu jarayonni insonparvar, ijtimoiy-madaniy, aksiologik kabi turli xil ilmiy nuqtai nazarlar kontekstida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Ushbu yondashuvlar madaniyatlararo o‘zaro hamkorlik hodisasini shaxsiy va kasbiy rivojlanish vositasi sifatida yaxlit tushunishni ta‘minlaydi.

A.A.Kolesnikovning fikriga ko‘ra, madaniyatlararo o‘zaro hamkorlikda qiyosiy tahlil nafaqat madaniy muhitlarni tipologik tahlil qilish, farqlash, taqqoslash imkonini beruvchi tadqiqot vositasi rolini o‘ynashi mumkin, balki ijtimoiy muhitning teran qadriyatli asoslarini transformatsiyalash, o‘zgartirishga undovchi omil sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

V.A.Yasvin shunday deb yozgan edi: “Ta‘lim muhiti (TM) – bu shaxsning istalgan yo‘nalishda shakllanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar tizimi, shuningdek, atrof-muhit va ijtimoiy muhitda mavjud bo‘lgan shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyatlar yig‘indisidir”.

M.M.Baxtin muloqotni madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning universal mexanizmi deb hisoblagan, bunda har bir madaniyat o'z qadr-qimmatini va ahamiyatini saqlab qolishi ta'kidlangan. Uning polifoniya va dialogizm g'oyasi poli-madaniy o'zaro hamkorlikni o'zgalikni tan olish va qabul qilishga asoslangan madaniyatlar o'rtasidagi hurmatga asoslangan o'zaro muloqot sifatidagi zamonaviy tushunilishi asosini tashkil etdi. Bu ta'lim muhitini poli-madaniy shaxsni rivojlantirish makoni sifatida talqin qilish imkonini beradi.


Ta'lim muhitini o'rganishda V.I.Slobodchikov va G.Y.Belyayev ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida shakllanadigan poli-madaniy o'zaro hamkorlik makoni sifatidagi rolini ta'kidlaydilar. Ularning yondashuvlarida ta'lim muhiti madaniyatlar muloqoti orqali shaxsning rivojlanishiga yordam beradigan dinamik, qadriyatlar bilan to'yingan tizim sifatida talqin qilinadi. Ikkala olim ham ta'lim jarayonida madaniy xilma-xillikni tan olish, o'zgalikni hurmat qilish, madaniyatlarni o'zaro boyitish shart-sharoitlarini shakllantirish zarurligiga e'tibor qaratgan.

Shu bilan birga, aynan bir xorijiy universitet ta'lim dasturlarini boshqa mamlakatda amalga oshirishda talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarlikni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmagan. Bunday sharoitda poli-madaniy o'zaro hamkorlikni ta'minlashning uslubiy jihatlarini ko'rib chiqish va tahlil qilish, talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligining pedagogik kuzatish, sotsiologik usullar, diagnostik, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichdan iborat pedagogik eksperiment kabi usullarni o'z ichiga olgan uslubiy jihatlarini tahlil qilish ustuvorlik kasb etadi.

Talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorligini shakllantirishga yordam beradigan pedagogik texnologiyalar, jumladan muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, keys usuli, madaniyatlararo muloqot texnologiyalari, o'yin va trening usullari, interfaol shakllar (munozaralar, bahslar, aqliy hujum), shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy asoslarini rivojlantirish zarur. Shundagina talabalarning poli-madaniy kompetentligini rivojlantirishga, bag'rikenglik, empatiya, madaniy xilma-xillikka hurmat va poli-madaniy muhitda samarali o'zaro hamkorlikka kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytiriladi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta'minoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida ta'lim tizimi va butun jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichi uchun dolzarb bo'lgan bo'lajak mutaxassislarda ochiqlik, madaniy farqlarga hurmat va turli madaniyat vakillari bilan konstruktiv munosabatda bo'lish qobiliyatini shakllantirishga yordam beruvchi takomillashtirilgan model mazmuni bayon etilgan. Biz tomondan takomillashtirilgan model 3 ta blokni o'z ichiga oladi: maqsadli, mazmunli va natijaviy (1-rasmga qarang).

Har bir blok talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligiga qaratilgan bir qator ilmiy yondashuvlarga asoslanadi. Bu orqali talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorligini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu maqsadga quyidagi vazifalarni hal qilish orqali muvaffaqiyatli erishiladi:



1-rasm. Talabalarning poli-madaniy o‘zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli

poli-madaniy o‘zaro hamkorlik, uning tamoyillari, mezonlari va darajalari to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish, tegishli model va metodikani yaratish, taklif qilinayotgan modelning samaradorligini eksperimental asoslash.

Ma’lumki, har qanday pedagogik model talabalarning poli-madaniy o‘zaro hamkorlikga tayyorligini shakllantirishdan manfaatdor jamiyat tomonidan ijtimoiy talabning mavjudligiga asoslanadi. Aynan shu ijtimoiy talab madaniy xilma-xillik sharoitida faoliyatini professional darajada, nazariy asoslangan holda va uslubiy jihatdan malakali amalga oshirishga qodir bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash zarurligini belgilaydi.

Poli-madaniy kompetentlik muloqot qadriyatlari, madaniy farqlarga tolerantlik va hurmatga yo‘naltirilgan bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligining ajralmas elementiga aylanadi. Talabalarning poli-madaniy o‘zaro hamkorlikga tayyorgarligini shakllantirish vazifalarini samarali hal qilish uchun madaniyatlar dialogi va madaniy farqlarni hurmat qilish tamoyillariga asoslangan ta’lim muhitini yaratish kerak. Madaniy xilma-xillik sharoitida poli-madaniy kompetentlik va kasbiy tayyorlikni rivojlantirishga qaratilgan muammoli ta’lim, loyiha va keys texnologiyalari, madaniyatlararo muloqot elementlari, treninglar va interfaol usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishlab chiqilgan model talabalarning poli-madaniy o‘zaro hamkorlikga tayyorligini samarali rivojlantirishga imkon beradi va ko‘p millatli muhitda ularning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshiradi.

Ma’lumki, poli-madaniy texnologiyalar har xil faoliyat turlarida qo‘llaniladi, ularni shartli ravishda quyidagi toifalarga bo‘lish mumkin: ta’limiy (o‘qitish va tarbiyalash), kommunikativ (shaxslararo va guruhlararo muloqot), boshqaruvga oid (ko‘p millatli jamoalarni tashkil etish va muvofiqlashtirish), madaniy-ma’rifiy (turli madaniyatlar haqida bilimlarni va ularni hurmat qilishni rivojlantirish), ijtimoiy-psixologik (nizolarni hal qilish va bag‘rikenglikni rivojlantirish), shuningdek, shaxsiy madaniyatlararo tajribani tanlash va tahlil qilishga qaratilgan raqamli resurslar va refleksiv texnologiyalar orqali madaniy xilma-xillikka ega bo‘lishni ta’minlaydigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Qayd etilgan texnologiyalar majmuaviy qo‘llanilishi kerak, chunki ular poli-madaniy yo‘nalishga ega bo‘lib bir-birini to‘ldiradi, poli-madaniy kompetensiyani har tomonlama rivojlantirishni ta’minlaydi. Faqatgina integratsiyalashgan yondashuv turli xil madaniy muhitda talabalarning ongli va konstruktiv o‘zaro hamkorlik qilish qobiliyatini samarali rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, ta’lim mazmunini takomillashtirishda biz tomondan “ko‘p madaniyatlilik”, “poli-madaniy o‘zaro hamkorlik”, “poli-madaniy shaxs”, “poli-madaniy ta’lim muhiti”, “poli-madaniy kompetensiyalar”, poli-madaniy o‘zaro hamkorlikga tayyorlik tushunchalari tahlil qilindi. Poli-madaniy o‘zaro hamkorlik uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetentliklar, jumladan, kommunikativ, madaniyatshunoslikka oid, ijtimoiy-psixologik va refleksiv kompetentliklar ko‘rib chiqildi.

Amalga oshirilgan madaniyatshunoslikka oid, muloqotli, kompetensiyaviy va poliparadigmal yondashuvlarning tahlili ularning bir-birini to‘ldiruvchi

xususiyatini aniqlash va talabalarning samarali poli-madaniy o‘zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning mazmuni va mexanizmlari haqida yaxlit tasavvurni shakllantirish imkonini berdi.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasasi talabalarining poli-madaniy o‘zaro hamkorlik kompetentligi – ularning kasbiy madaniyatining muhim tavsifi bo‘lib, madaniy xilma-xillik sharoitida samarali o‘zaro hamkorlikda bo‘lish, turli qadriyatlar va meyorlarga bag‘rikenglik, empatiya va hurmat ko‘rsatish qobiliyatini aks ettiradi. Ushbu kompetentlikni shakllantirish nafaqat muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga, balki shaxsiy rivojlanishga ham yordam beradi, bu esa, uni zamonaviy ta’limning eng muhim jihatiga aylantiradi. Poli-madaniy o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar pedagogik shart-sharoitlarning yetarli emasligini aniqlash imkonini berdi, bu esa, talabalarning poli-madaniy o‘zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish pedagogik imkoniyatlarini o‘rganish va kengaytirish muammosini yanada dolzarblashtiradi.

Yuqoridagilarni xulosalagan holda, shuni ta’kidlash kerakki, talabalarni poli-madaniy o‘zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish ta’lim dasturlari mazmunini mahalliy sharoitlarga moslashtirish, bunda turli millat vakillarining etnomadaniy xususiyatlarini inobatga olish va madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirilishini ta’minlaydigan umumlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning poli-madaniy o‘zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligini oshirishni eksperimental asoslash”** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarning poli-madaniy o‘zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari va uning natijalari keltirilgan. Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi – talabalarda poli-madaniy o‘zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning ishlab chiqilgan modeli va pedagogik shart-sharoitlarini ta’lim amaliyotida sinovdan o‘tkazish, shuningdek, ta’lim jarayonida ularning samaradorligini baholashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirilgan, bular diagnostika, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlardir. Diagnostika bosqichida talabalarning poli-madaniy o‘zaro hamkorlik, madaniyatlararo kompetensiya, madaniyatlar dialogi kabi kompetensiyalarining shakllanganlik darajasi o‘rganilgan. Tajriba-sinov ishlari A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Qo‘qon davlat universiteti va Namangan davlat pedagogika institutida o‘tkazilgan. Unda «Pedagogik ta’lim», «Psixologik-pedagogik ta’lim», «Maxsus (defektologik) ta’lim» ta’lim yo‘nalishlarining «Rus tilini chet tili sifatida o‘qitishning nazariyasi va metodikasi», «Madaniyatlararo kommunikatsiya», «Lingvistika» fanlari o‘qitilayotgan talabalar ishtirok etgan (A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetining Toshkent shahridagi filiali – 145 nafar, Jizzax davlat pedagogika universiteti – 100 nafar, Namangan davlat pedagogika instituti – 100 nafar, Qo‘qon davlat universiteti – 100 nafar, jami 445 respondent qatnashgan), ular o‘rtasida 21 ta ochiq va yopiq savollardan iborat anketa-so‘rovi o‘tkazilgan, bu poli-madaniy o‘zaro hamkorlikka tayyorgarlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning mavjudligini dastlabki diagnostika qilish imkonini bergan.


Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida tolerantlikning o'rta darajasi (68%) ustuvorlik qilgan, bu muayyan yetishmovchiliklar mavjudligini, madaniyatlararo muloqotga situativ tayyorlikni ko'rsatgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Etnomadaniy tolerantlik darajasining dinamikasi (n=445)

Tolerantlik darajalari	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	O'zgarishlar
Yuqori	22% (98 nafar)	38% (169 nafar)	+16%
O'rta	68% (303 nafar)	57% (254 nafar)	-11%
Past	10% (44 nafar)	5% (22 nafar)	-5%

Madaniyatlararo treninglar va ishlarning loyihaviy shakllarini o'z ichiga olgan maxsus pedagogik shart-sharoitlarning amalga oshirilishidan so'ng tolerantlik darajasi yuqori bo'lgan talabalar ulushi 22% dan 38% gacha oshgan, past ko'rsatkichli guruh esa, ikki barobar kamaygan – 10% dan 5% gacha. Boshidan o'rtacha tolerantlik darajasini namoyish qilgan talabalarda integrativ ko'rsatkichlarning o'sishi qayd etilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. Etno-madaniy tolerantlik darajasining dinamikasi: tajriba boshida va oxirida, foizlarda

Tajriba va nazorat guruhlarida talabalarining poli-madaniy ko'nikmalarni o'zlashtirishdagi farqlarning strategik ahamiyatini baholash uchun Akkulturasiya strategiyalari – loyihalarning muvaffaqiyatliliqi qo'llanilgan: $\rho = 1 - 6 \sum d_i^2 / n(n^2 - 1) = 0.43$

Kendall (τ): ekspert baholash uchun: $\tau = P - Q / P + Q = 89 - 34 / 89 + 34 = 0.37$
 Spirmen tahlili integratsiyalashgan strategiya va loyihaviy faoliyatning muvaffaqiyatliliqi o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash ($\rho = 0,43$; $\pi < 0,01$) imkonini bergan. τ -Kendall bo'yicha ekspert baholarning kelishilganligi 0,37 ($\pi < 0,05$) ni tashkil qilgan, bu mezonlarning standartlashtirilishini talab qilgan. Eng katta korrelyatsiya emotsional tolerantlik va madaniyatlararo aloqalar ($p = 0,61$; $\pi < 0,001$) o'rtasida aniqlangan. Tolerantlik va nizolar o'rtasidagi teskari bog'lanish ($\rho = -0,39$) poli-madaniy kompetentlikdagi emotsional komponentning ahamiyatini ta'kidlaydi. Regression tahlil talabalar o'rtasida madaniyatlararo moslashish darajasining ahamiyatli prediktorlarini (Y) aniqlash imkonini bergan (2-jadvalga qarang).

Poli-madaniy moslashuv regression tahlilining natijalari

Parametr	Koeffitsent (b)	St. xato	B	t-qiymat	p-qiymat	VIF
Konstanta (b_0)	2.14	0.87	-	2.46	0.017	-
Kognitiv (X_1)	0.38	0.11	0.32	3.41	0.002	1.62
Emotsional (X_2)	0.51	0.10	0.47	4.92	<0.001	1.75
Hulqiy (X_3)	0.29	0.12	0.21	2.34	0.024	1.58

Model uchta predikatori o'z ichiga olgan, bular: kognitiv komponent (X_1), emotsional tolerantlik (X_2) va xulqiy egiluvchanlik (X_3). Regression tahlil quyidagilarni ko'rsatgan: $Y = 2.14 + 0.38X_1 + 0.51X_2 + 0.29X_3$ ($P^2 = 0.67$; $\pi < 0.001$), bu yerda emotsional komponent eng katta hissa qo'shgan ($\bar{\sigma} = 0.51$; $\tau = 4.92$) va u tolerantlik ortishi bilan moslashishning o'sishini oldindan aytib beradi.

Geteroskedastiklik bo'yicha Breush-Pagan testi $\chi^2 = 1.12$, $\pi = 0.33$ ko'rsatkichni qayd etdi. Breush-Pagan testi esa ($\chi^2=1.12$, $\pi=0.33$) xatolarning gomoskedastikligini tasdiqladi, bu koeffitsiyentlarni baholash samaradorligini va standart xatolarning to'g'riligini, shuningdek, t- va F-testlarning ishonchliligini ta'minlaydi. Kognitiv komponent mo'tadil darajada ahamiyatli ta'sir ko'rsatgan ($\bar{\sigma}_1=0.38$, $\pi=0.002$), xulqiy egiluvchanlik esa, kamroq, lekin ahamiyatli hissa qo'shgan ($\bar{\sigma}_3=0.29$, $\pi=0.024$). Qoldiqlar tahlili avtokorrelyatsiya yo'qligini (Durbin-Watson=1.87) va modelning dastlabki shartlari bajarilishini tasdiqlagan. Multikollinearlik aniqlanmagan (barcha predikatlarni uchun $VIF < 1.8$). Model moslashish darajasi dispersiyasining 67% ni tushuntiradi, bu esa, uning ta'lim konteksti uchun yaxshi prognostik kuchga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunday qilib, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning taklif etilayotgan pedagogik shart-sharoitlari samaraga ega ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

“Talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini samarali rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish” mavzusida amalga oshirilgan ilmiy-nazariy va metodik-amaliy tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jahondagi globallashtirish va ko'p millatli ta'lim muhiti sharoitlarida talabalarni kasbiy tayyorlashning muhim komponenti sifatida poli-madaniy o'zaro hamkorlikka ularni tayyorgarligini rivojlantirishning dolzarbligi aniqlangan, bunda talabalarni poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorlash bilan bog'liq asosiy tushunchalar mazmuni va mohiyati, shu jumladan, «poli-madaniy shaxs», «poli-madaniy ta'lim muhiti», «poli-madaniy kompetensiyalar» kabi kategoriyalarning tushunchaviy chegaralari aniqlashtirilgan.

2. Talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini

rivojlantirish mazmuni va mohiyatini belgilaydigan nazariy-metodologik yondashuvlar o'quv jarayonidagi interfaol madaniy inklyuziya va krossmadaniy o'zaro hurmatli muloqotda turli madaniy meroslarni milliy sharoitlarda integrativ interpretatsiyasi orqali aniqlangan, bunda poli-madaniy o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan amaliyotga yo'naltirilgan kompetensiyalar majmuasi, shu jumladan, kommunikativ, aksiologik, refleksiv va etnomadaniy ko'nikmalar tizimlashtirilgan.

3. Talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli turli madaniyat vakillarining o'zaro hamkorlikdagi refleksiv faoliyatidagi voqeylikni milliy sharoitga etnomadaniy xususiyatlarga ko'ra adaptiv muvofiqlashtirish, jumladan poli-madaniy tayyorgarlikning kognitiv, qadriyatli-motivatsion, faoliyatli va refleksiv kabi asosiy komponentlarini aniqlashtirish, pedagogik shart-sharoitlar va mos ta'lim muhitini loyihalash, tayyorgarlik shakllanganligi darajasini diagnostika qilish hamda pedagogik ta'sir samaradorligini ta'minlaydigan mezon va ko'rsatkichlarni belgilash asosida takomillashtirilgan.

4. Turli madaniyatlarga oid bilim va ko'nikmalarni diagnostika qilish mezon va ko'rsatkichlarini ta'lim dasturlariga kiritish hamda madaniyatlararo mikroguruhlarini tashkil etish, kompetensiyaviy, madaniyatshunoslikka oid, faoliyatli, poliparadigmal yondashuvlarni amalga oshirish orqali talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarlik jarayonlari rivojlantirilgan.

5. Poli-madaniy kompetentlikni rivojlanishiga yordam beradigan madaniyatlararo kommunikatsiyaga asoslangan ta'lim-tarbiya muhitini yaratish orqali poli-madaniy o'zaro hamkorlikni rivojlantirish jarayonini sinergetik samaradorligi talabalarning turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi faollik darajasi, hamjihatlik va o'zaro bir-birlarini qo'llab-quvvatlashdagi dinamik o'zgarishlarni kuzatish asosida aniqlangan.

6. O'tkazilgan anketa-so'rovlari va pedagogik eksperiment talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarlik darajasida ijobiy dinamikani ko'rsatdi, bu taklif qilingan ilmiy tavsiyalar va uni amalga oshirish shartlarining natijadorligini tasdiqlaydi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Talabalarni poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligi sifatini oshirish uchun ta'lim-tarbiya mazmuniga milliy qadriyatlar va madaniyatlararo kommunikatsiyani samarali translyatsiya qilish uchun raqamli ekotizimlarini ishlab chiqish.

2. Bir-biriga mazmunan yaqin fanlarni o'qitish doirasida talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish uchun kompetensiyaviy va poliparadigmal yondashuvlardan foydalanishni kengaytirish.

3. Talabalarning poli-madaniy o'zaro hamkorlikka tayyorgarligini rivojlantirish jarayonining axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish, shu jumladan, o'quv-metodik resurslar va amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.09.2023. Ped .173.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ ПЕРЕПОДГОТОВКИ
И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ КАДРОВ
СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**ФИЛИАЛ РОССИЙСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ А.И. ГЕРЦЕНА
В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ**

КИРЕЕВА ЭЛЬВИНА ФЛАРИТОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ
ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ
К ПОЛИКУЛЬТУРНОМУ ВЗАИМОДЕЙСТВИЮ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Ташкент – 2025

Диссертация выполнена в финале Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена в городе Ташкенте.

Аннотация диссертации размещена на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета (www.bimn.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Барченко Сергей Алексеевич
кандидат педагогических наук, доцент

Официальные оппоненты: Юлисаев Фарид Рафаилович
доктор педагогических наук, профессор
Шни Азришана Васильевна
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация: Национальный педагогический университет
Узбекистана

Защита диссертации состоится «15» 12 2025 года на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 при Институте переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования (адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зие, дом 3. Тел.: (+998) 71-203-01-28, факс: (+998) 71-202-01-20, e-mail: info@bimn.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования (зарегистрировано под номером 27) (адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зие, дом 3. Тел.: (+998) 71-203-01-28, факс: (+998) 71-202-01-20, e-mail: info@bimn.uz).

Аннотация диссертации разослана «24» 11 2025 г.
(Протокол реестра № 27 от «24» 11 2025 г.)



У.Ш. Бегимкулов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н., профессор

Н.К. Хасназарова
Научный секретарь научного
совета по присуждению ученых
степеней, доктор философии по
педагогическим наукам (PhD)

Я.У. Исмаилов
Председатель научного
семинара при научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Современные тенденции интернационализации высшего образования привели к увеличению многонационального студенческого контингента в университетах мира. В этих условиях особое значение приобретает развитие межкультурного диалога и сотрудничества в образовательном процессе, направленных на формирование толерантности, взаимного уважения и готовности к конструктивному взаимодействию. В своём выступлении Президент Республики Узбекистан отметил: «Мы всегда готовы внести свой вклад в укрепление диалога между народами, культурами и цивилизациями, в достижение общечеловеческих целей»³, — эти слова определяют новые педагогические задачи, направленные на формирование у студентов готовности к межкультурному взаимодействию, адаптации к многонациональной образовательной среде и активному участию в поликультурном пространстве современного общества.

В научных и образовательных центрах мира одним из актуальных направлений современных педагогических исследований является подготовка специалистов, способных эффективно осуществлять общение и сотрудничество в поликультурной среде, обладающих кросс-культурными компетенциями. Особое внимание в научных изысканиях уделяется развитию у будущих педагогов таких качеств, как эмпатия, коммуникативная гибкость, умение адекватно воспринимать культурные различия, этнокультурная толерантность и кросс-культурная компетентность, а также вопросам адаптации мигрантов к образовательной среде. В декларации ЮНЕСКО «Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework»⁴ подчёркивается важность формирования компетенций межкультурного общения и сотрудничества, акцентируется необходимость обеспечения открытого и уважительного диалога, взаимопонимания между людьми, различающимися по этническим, культурным, религиозным и языковым признакам, а также внедрения практических проектов, поддерживающих поликультурное сотрудничество в образовательной среде.

В условиях качественного совершенствования системы образования Нового Узбекистана, её модернизации на основе международных стандартов, расширения зарубежного сотрудничества и развития многонациональной образовательной среды создаются организационно-педагогические и методологические основы формирования у студентов готовности к поликультурному взаимодействию. В этом процессе особое значение приобретает формирование образовательной среды, направленной на укрепление толерантности, межкультурного уважения и общечеловеческих ценностей в обществе. В результате существенно расширяются возможности

³ Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 80-й сессии Генеральной Ассамблеи Организации Объединённых Наций. <https://president.uz/ru/lists/view/8525>

⁴ <https://www.unesco.org/interculturaldialogue/en/interculturaldialogue/good-practices/intercultural-competences-conceptual-and-operational-framework>

для развития готовности студентов к поликультурному взаимодействию.

